



NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **19,5** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,6** mingtaga kamaygan yoki **15,5 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **8,3** birlikni tashkil qildi.



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning yanvar-dekabrida **3 929** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,3 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2025- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi

2021-2025- yillar 1- yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2024- y.		2025- y.
23 136	Namangan viloyati	19 547
7 192	Namangan sh.	6 329
2 038	Chust	1 697
1 646	Pop	1 478
1 551	To'raqo'rg'on	1 262
1 483	Chortoq	1 252
1 480	Namangan	1 159
1 385	Uychi	1 154
1 351	Kosonsoy	1 117
1 646	Uchqo'rg'on	1 066
1 167	Yangiqo'rg'on	1 061
1 149	Norin	988
1 048	Mingbuloq	984

2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **19 547** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 929** tani tashkil etdi.

2025- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahrida **6 329** tani yoki jamiga nisbatan **32,4 %** ni tashkil etdi.

1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Mingbuloq	11,6
Chust	9,6
Chortoq	9,5
Namangan sh.	9,0
Pop	8,6
Uchqo'rg'on	7,7
Namangan	7,7
Yangiqo'rg'on	7,5
Norin	7,5
To'raqo'rg'on	7,1
Uychi	6,5
Kosonsoy	6,5

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- yanvar holatiga, birlikda



2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **8,3** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2024- yilga nisbatan **1,3** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **11,6** birlik, Chust tumanida **9,6** birlik, Chortoq tumanida **9,5** birlik, Namangan shahrida **9,0** birlik va Pop tumanida **8,6** birlikka yetdi.


* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Mingbuloq tumani
– 11,6 birlik.



O'rta ko'rsatkich

Pop tumani
– 8,6 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Uychi tumani
– 6,5 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **11,6** birlik, Chust tumanida **9,6** birlik, Chortoq tumanida **9,5** birlik, Namangan shahrida **9,0** birlik, Pop tumanida **8,6** birlik, Namangan hamda Uchqo'rg'on tumanlarida **7,7** birlik, Norin va Yangiqo'rg'on tumanlarida **7,5** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2025- yil 1- yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Pop tumani

8,6

Chortoq tumani

9,5

Mingbuloq tumani

11,6

Namangan shahri

9,0

Chust tumani

9,6

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

322	Mingbuloq	278
261	Kosonsoy	276
242	Namangan	159
247	Norin	211
312	Pop	305
370	To'raqo'rg'on	192
283	Uychi	189
449	Uchqo'rg'on	304
377	Chortoq	245
331	Chust	297
231	Yangiqo'rg'on	269
1211	Namangan sh.	1204

2024- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Namangan sh.	30,6
Pop	7,8
Uchqo'rg'on	7,7
Chust	7,6
Mingbuloq	7,1
Kosonsoy	7,0
Yangiqo'rg'on	6,8
Chortoq	6,2
Norin	5,4
To'raqo'rg'on	4,9
Uychi	4,8
Namangan	4,1


2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan shahri – **30,6 %**, Pop tumani – **7,8 %**, Uchqo'rg'on tumani – **7,7 %**, Chust tumani – **7,6 %**, Mingbuloq tumani – **7,1 %**, Kosonsoy tumani – **7,0 %**, Yangiqo'rg'on tumani – **6,8 %** hamda Chortoq tumani – **6,2 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 614 ta, sanoatda 731 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 348 ta yangidan tashkil etilgan.

Shahar va tumanlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Namangan shahrida 1 204 ta, Pop tumanida 305 ta, Uchqo'rg'on tumanida 304 ta, Chust tumanida 297 ta, Mingbuloq tumanida 278 ta hamda Kosonsoy tumanida 276 ta yangidan tashkil etilgan.


2023- y. 2024- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami **26 778** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **10 566** (yoki **39,4 %**) ta, sanoat sohasida – **6 320** (yoki **23,6 %**) ta, xizmatlar sohasida – **5 408** (yoki **20,2 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3 070** (yoki **11,5 %**) ta va qurilish sohasida – **1414** (yoki **5,3 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Investitsiya



Qurilish




Chakana savdo




Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2023- y. ■ 2024- y.




■ 2023- y. ■ 2024- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2024- yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **73,4** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **0,9** punktga kamaygan.




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashishda **97,4** % ni, yo'lovchi aylanmasida **95,8** % ni, yuk aylanmasida **94,7** % ni, qishloq xo'jaligida **93,1** % ni, chakana savdoda **92,8** % ni qurilishda **92,2** % ni, yuk tashishda **92,0** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm

Namangan sh.	5998,3
Namangan	1523,2
Uychi	1102,6
Kosonsoy	918,1
Pop	693,8
Norin	593,7
Chust	573,6
Yangiqo'rg'on	484,8
To'raqo'rg'on	458,2
Mingbuloq	428,0
Uchqo'rg'on	385,7
Chortoq	300,0

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **15 970,3** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (**5 998,3** mlrd so'm), Namangan (**1523,2** mlrd so'm), Uychi (**1102,6** mlrd so'm), Kosonsoy (**918,1** mlrd so'm) va Pop (**693,8** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Chortoq tumanida (**300,0** mlrd so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'm

2024- yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 50,0 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yangiqo'rg'on tumani va Norin tumanlari (99,9 %), Namangan tumani (81,1 %), Pop tumani (78,2 %), Uychi tumani (70,2 %), Namangan shahri (60,3 %) tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Namangan sh.	2179,4	87,4
Uychi	805,4	98,2
Kosonsoy	614,6	96,3
Chortoq	580,1	97,8
Uchqo'rg'on	497,9	90,7
Chust	466,2	97,8
Namangan	454,2	89,6
Yangiqo'rg'on	430,5	96,7
To'raqo'rg'on	383,4	94,2
Norin	353,3	97,6
Mingbuloq	346,8	97,8
Pop	277,5	45,7

hajmi, mlrd so'mda


ulushi, % da

2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **11 754,2** mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **92,2** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **112,1** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (**2 179,4** mlrd so'm), Uychi (**805,4** mlrd so'm), Kosonsoy (**614,6** mlrd so'm), Chortoq (**580,1** mlrd so'm), Uchqo'rg'on (**497,9** mlrd so'm), Chust (**466,2** mlrd so'm) va Namangan (**454,2** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **43 767,5** mlrd. so'mni yoki jami investitsiya hajmining **82,1 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **311,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Namangan shahri (**21 009,5** mlrd so'm), Pop (**6372,8** mlrd so'm), Chust (**3149,4** mlrd so'm), To'raqo'rg'on (**2266,7** mlrd so'm), Yangiqo'rg'on (**1809,0** mlrd so'm), Uychi (**1678,6** mlrd so'm) hamda Chortoq (**1615,3** mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **33 338,7** mlrd so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **93,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **103,2** % ni tashkil qildi.

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Yangiqo'rg'on (5 852,9 mlrd so'm), To'raqo'rg'on (3 081,2 mlrd so'm), Uchqo'rg'on (3 037,4 mlrd.so'm), Chust (2 894,9 mlrd.so'm), Uychi (2 788,2 mlrd so'm), Pop (2 769,4 mlrd so'm) va Namangan tumanlarida (2 682,1 mlrd so'm) qayd etildi.

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Yangiqo'rg'on	5852,9	99,1
To'raqo'rg'on	3081,2	98,7
Uchqo'rg'on	3037,4	95,1
Chust	2894,9	99,2
Uychi	2788,2	96,9
Pop	2769,4	81,2
Namangan	2682,1	94,5
Chortoq	2583,5	99,2
Norin	2092,7	94,2
Mingbuloq	1925,4	76,7
Namangan sh.	1877,6	77,8
Kosonsoy	1753,6	98,4

hajmi, mlrd so'mda
 ulushi, % da

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **23 266,9** mlrd so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,8 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **108,6 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Namangan sh.	8246,8	92,4
Pop	1650,1	93,8
To'raqo'rg'on	1511,6	92,3
Chust	1503,5	93,5
Norin	1502,6	96,4
Kosonsoy	1434,5	99,2
Yangiqo'rg'on	1419,5	98,0
Uychi	1329,1	99,2
Uchqo'rg'on	1194,8	97,4
Chortoq	1121,0	97,5
Namangan	913,1	95,5
Mingbuloq	648,2	95,3

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (**8 246,8** mlrd so'm), Pop (**1 650,1** mlrd so'm), To'raqo'rg'on (**1 511,6** mlrd so'm), Chust (**1 503,5** mlrd so'm), Norin (**1 502,6** mlrd so'm), Kosonsoy (**1 434,5** mlrd so'm) va Yangiqo'rg'on (**1 419,5** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2020 va 2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd so'mda

Namangan sh.	4 465,9
Chust	1 217,8
Uychi	1 113,0
To'raqo'rg'on	1 068,1
Pop	1 010,8
Namangan	996,5
Chortoq	964,1
Kosonsoy	954,4
Yangiqo'rg'on	921,9
Uchqo'rg'on	866,4
Norin	812,0
Mingbuloq	734,2

2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **32 595,9** mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **75,6 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil Yanvar-dekabr oylariga nisbatan **113,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (**4 465,9** mlrd so'm), Chust (**1 217,8** mlrd so'm), Uychi (**1 113,0** mlrd so'm), To'raqo'rg'on (**1 068,1** mlrd so'm), Pop (**1 010,8** mlrd so'm), Namangan (**996,5** mlrd so'm) va Chortoq (**964,1** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari
(yanvar-dekabr oylarida)

15 491,0	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	47,5
7 026,9	Savdo xizmatlari	21,6
4 463,9	Transport xizmatlari	13,7
1 635,2	Shaxsiy xizmatlar	5,0
917,5	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,8
877,6	Boshqa xizmatlar	2,7
551,0	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1,7
456,3	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,4
367,8	Ijara xizmatlari	1,1
324,5	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1,0
206,3	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,6
144,3	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,4
133,5	Moliyaviy xizmatlar	0,4

Hajmi, mlrd so'mda


Ulushi, foizda

Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi Yashash va ovqatlanish xizmatlarda – 47,5 % (15 491,0 mlrd so'm), savdo xizmatlarida – 21,6 % (7 026,9 mlrd so'm), transport xizmatlarida – 13,7 % (4 463,9 mlrd so'm), shaxsiy xizmatlarda – 5,0 % (1 635,2 mlrd so'm) hamda kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda 2,8 % (917,5 mlrd so'm)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi Moliyaviy xizmatlarda 0,4 % (133,5 mlrd so'm) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **294,2** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **49,3** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yangiqo'rg'on	14,8	100,0
Norin	14,0	100,0
Mingbuloq	10,2	100,0
Chortoq	3,7	91,8
Uychi	32,7	65,7
Namangan sh.	124,2	64,2
Namangan	13,7	60,0
Kosonsoy	35,8	39,1
Pop	14,5	32,3
Chust	10,5	25,2
Uchqo'rg'on	4,4	20,7
To'raqo'rg'on	13,2	15,4

hajmi, mln. AQSH dollar


ulushi, % da

2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on, Norin, Mingbuloq tumanlarida – **100,0** %, Chortoq tumanida – **91,8** %, Uychi tumanida – **65,7** %, Namangan shahrida – **64,2** %, Namangan tumanida – **60,0** % ni tashkil qildi.

Eng past ko'rsatkich Chust tumanida – **15,4** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **503,4** million AQSH dollarini yoki jami importning **67,6** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Mingbuloq tumanida – **100,0** %, Yangiqo'rg'on tumanida – **99,8**%, Pop tumanida – **98,2** %, Norin tumanida – **94,2** %, Uychi tumanida – **90,8** %, Uchqo'rg'on tumanida – **89,0** % va Kosonsoy tumanida – **75,8** % ni tashkil etdi.


Mingbuloq	100,0
Yangiqo'rg'on	99,8
Pop	98,2
Norin	94,2
Uychi	90,8
Uchqo'rg'on	89,0
Kosonsoy	75,8
Namangan	73,7
Chortoq	70,2
Namangan sh.	68,3
Chust	38,7
To'raqo'rg'on	21,0

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2024- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,0 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,3 %** ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,7 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,5 %** ni tashkil qildi.



**Yo'lovchi
tashishda**

2024- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,4 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,9 %** ni tashkil qildi.




**Yo'lovchi
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,8 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,0 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2024- yil **IV chorak** yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1 083** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **352 (32,5 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **672 (62,1 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **59 (5,4 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **41,9 % (454 ta)**, xizmatlar sohasida – **29,8 % (323 ta)**, sanoatda – **16,0 % (173 ta)**, qurilishda – **7,3 % (79 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **5,0 % (54 ta)** ni tashkil etdi.

2024- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

49	Mingbuloq	4,5
54	Kosonsoy	5,0
61	Namangan	5,6
58	Norin	5,4
86	Pop	7,9
75	To'raqo'rg'on	6,9
70	Uychi	6,5
46	Uchqo'rg'on	4,2
69	Chortoq	6,9
79	Chust	7,3
39	Yangiqo'rg'on	3,6
397	Namangan sh.	36,7


Soni, ta

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (397 ta), Pop (86 ta), Chust (79), To'raqo'rg'on (74 ta), Uychi (73 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning IV choragida **193** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragiga kelib esa **352** taga yetgan yoki 2019- yilning IV choragiga nisbatan **159** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **730** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabrida **672** ta yoki **58** taga kamaygan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **92** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **59** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **33** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning **IV choragida 545** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **IV choragiga** kelib esa, **414** taga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan **131** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning **IV choragida 290** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **IV choragida 515** ta yoki **225** taga oshgan

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2020- yilning **IV choragida 59** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning **IV choragiga** kelib, bu ko'rsatkich **56** tani tashkil etib, **3** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning **IV choragida 19,0 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa, **32,5 %** ga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan **13,5 %** oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2020- yilda **71,9 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **IV choragida 62,1 %**, yoki **9,8 %** ga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilda **9,1 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **5,4 %**, yoki **3,7 %** ga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning **IV choragida 61,0 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa, **42,0 %** ga yetgan yoki 2020- yilning **IV choragida** nisbatan **19,0 %**ga kamaygan.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2020- yilning **IV choragida 32,4 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabrda **52,4 %**, yoki **20,0 %** ga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa, 2020- yilning **IV choragida 6,6 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning **IV choragiga** kelib, bu ko'rsatkich **5,6 %**, yoki **1,0 %** ga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Jami - 62,1




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning **IV choragida** o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **36,1** %ni, xizmatlar sohasida – **31,9** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **29,6** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – **68,4** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **66,7** % ni, sanoatda – **65,9** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **7,1** % ni, sanoatda – **6,9** % ni, savdoda – **4,2** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning **IV choragida** kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin **3** oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **50,9** % ni, xizmatlar sohasida – **47,4** % ni, qurilishda – **45,6** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin **3** oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **57,4** % ni, sanoatda – **56,6** % ni, qurilishda – **53,1** % ni, tashkil etdi.

Yaqin **3** oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – **3,5** % ni, xizmatlar sohasida – **3,4** % ni, savdoda – **2,4** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	39,9	51,9	8,2
Band bo'lganlar soni	15,3	79,4	5,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	35,1	60,4	4,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	31,0	64,1	4,9
Raqobat muhiti	36,3	60,8	2,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	38,6	58,0	3,4
Band bo'lganlar soni	19,1	78,6	2,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	33,4	63,8	2,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	30,6	66,4	3,0
Raqobat muhiti	33,3	64,4	2,3


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli